



TOSHKENT SHAHAR YANGIHAYOT TUMAN HOKIMI Q A R O R I

2023 - yil 22 - may

147-14-220-Q/23

Yangihayot tuman hokimligi

Toshkent shahar hokimining 2023-yil 11-maydagi 295-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 5-apreldagi “2023-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-113-sonli qarori hamda Toshkent shahar hokimining 2023-yil 11-maydagi 295-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Toshkent shahar hokimining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 5-apreldagi “2023-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-113-sonli qarori ijrosi haqida” 2023-yil 11-maydagi 295-14-0-Q/23-sonli qarori ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qaroriga muvofiq:

2023-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning prognoz hajmlari ma‘qullanganligi;

“Ijtimoiy himoya yagona reestri”ga kiritilgan jismoniy shaxslar tomonidan sotib olinganda qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi qaytarib beriladigan ayrim turdagi oziq-ovqat mahsulotlari ro‘yxati tasdiqlanganligi;

2023-yil 1-maydan boshlab “Ijtimoiy himoya yagona reestri”ga kiritilgan jismoniy shaxslar qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi qaytarib beriladigan ayrim turdagi oziq-ovqat mahsulotlari ro‘yxatiga muvofiq tovarlarning chakana savdo obektlarida xaridini amalga oshirganda va ushbu xaridni soliq organlarining maxsus mobil ilovasida xarid chekining fiskal belgisini matritalsali shtrix kod (QR-kod)

yordamida skanerlash orqali ro'yxatdan o'tkazganda, ularning bank kartalariga har oy yakuni bilan xarid summasining 1 foizi miqdoridagi to'lov o'rniga, xarid summasida to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasi respublika budjetidan qaytarilishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Toshkent shahar hokimining ushbu qarori bilan:

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2023-yilda amalga oshirish bo'yicha Toshkent shahar chora-tadbirlar dasturi ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Toshkent shahar Qishloq xo'jaligi boshqarmasi hamda Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa egalari kengashi Toshkent shahar bo'limi 2023-yil hosili uchun mahsulot yetkazib berish va xarid qilish bo'yicha shartnomalar tuzilishiga va ularning o'z vaqtida bajarilishiga mas'ul etib belgilanligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari X.Tashpulatov zimmasiga yuklatilsin.

Yangihayot tumani hokimi



X.Inogamov